

JAHON IQTISODIYOTIDA O'ZBEKISTONNING TUTGAN O'RNİ. 2020-2024 YILLAR ORALIG'IDA TAHLILI

Yo'ldoshev Bahodir O'razmamat o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Iqtisodiyot yo'nalishi 4-kurs talabasi.

[Tel:+998 88 925 04 03](tel:+998889250403)

Karamatov Jaloliddin Kamoliddino'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Iqtisodiyot yo'nalishi 4-kurs talabasi.

[Tel:+998 77 025 47 04](tel:+998770254704)

Mazkur tezisda O'zbekistonning 2020–2024-yillar davomida tashqi savdo aylanmasining o'sish sabablari, rivojlanayotgan sohalar va ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari, tashqi savdo siyosatini liberallashtirish, yangi savdo hamkorlari bilan aloqalar o'rnatish va sanoatni modernizatsiya qilish orqali tashqi savdo aylanmasida sezilarli o'sish kuzatildi. Tezisdan shuningdek, O'zbekistonning eksport tarkibidagi o'zgarishlar, yangi sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va transport infratuzilmasining yaxshilanishi muhokama qilinadi. O'zbekistonning tashqi savdo siyosatining rivojlanishi va yangi tarmoqlarga e'tibor qaratilishi, uning xalqaro bozorga kirishini osonlashtirib, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minladi.

Kalit so'zlar: Yel, MDH, Xitoy, Janubiy Koreya, eksport, "UzAuto Motors", BYD, metallurgiya, kon sanoati, Import, GSP+ (Generalized System of Preferences Plus),

Har bitta rivojlangan va rivojlanayotgan yirik davlatlar kabi O'zbekiston ham jahon iqtisodiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Jahon iqtisodiyotiga hissasini qo'shish

deganda faqat eksport mahsulotlarini sotish emas, balki import mahsulotlari qabul qilish ham nazarda tutiladi. Albatta mamlakatda eksport hajmi import hajmidan ko‘p bo‘lishi uchun mamlakatning iqtisodiyotiga foyda keltiradi. Biroq boshqa tarafdin olib qarasak, mamlakat ichki mahsulotlarining haddan ziyod tashqi bozorga chiqishi davlatning ichki bozoriga salbiy ta’sir qilishi ham mumkin. Shuning uchun ko‘pgina davlatlar iqtisodiyotida ba’zan import hajmi eksport hajmidan ko‘proq bo‘ladi, ba’zida esa teskari hodisa kuzatiladi. Tashqi savdo deganda esa import va eksport hajmlarining umumiy yig‘indisi hisobga olinadi. Bugungi kundagi Yangi O‘zbekistonning xalqaro munosabatlardagi eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri — bu mintaqaviy davlatlar bilan aloqalarni, har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishdan hamda mustahkamlashdan iboratdir. Bu esa, o‘z navbatida Markaziy Osiyoda tinchlik, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni va farovonlikni ta’minlaydi. Bundan tashqari, mamlakatimiz G‘arb, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarni jadal va izchil rivojlantirib, ularni sifat jihatidan yangi mazmun bilan to‘ldirishga intilmoqda. Davlatimizning tashqi savdo aylanmasi so‘nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Buning asosiy sabablaridan biri mamlakatning tashqi savdo aloqalarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan siyosati va yangi bozorlar bilan hamkorlik o‘rnatishdir. 2023 yilda umumiy tashqi savdo aylanmasi \$50 milliard AQSh dollaridan oshdi. Bundan eksport hajmi \$19,3 milliard AQSh dollarini, import hajmi \$30,7 milliard AQSh dollarini hamda savdo balansi esa \$11,4 milliard AQSh dollari miqdorida salbiy balansni tashkil qildi.

2020–2024-yillarda O‘zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasi (AQSh dollarida):

2020	yil – 36,3 milliard	(+13.1%)
2021	yil – 42,1 milliard	(+16%)
2022	yil – 50,0 milliard	(+18.8%)

2023	yil – 62,6 milliard	(+25.5%)
2024	yil (yanvar- noyabr) 59.4miliard	(+29.1%)

2. O‘shining asosiy sabablari.

a) Eksport va import uchun erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tish. Bojxona tartib-qoidolari soddalashtirildi. Chet ellik investorlar jalb qilishga yordam berdi.

b) Tashqi savdo hamkorlarining kengayishi. O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi (YeI), MDH, Xitoy, Janubiy Koreya va Yaqin Sharq davlatlari bilan savdo aloqalarini kengaytirdi. Xususan, 2021-yilda YeI tomonidan GSP+ (Generalized System of Preferences Plus) tizimiga kiritilishi O‘zbekistonga boj to‘lovlarisiz 6200 ta mahsulot eksport qilish imkonini berdi.

c) Yangi sanoat tarmoqlarining rivojlanishi. Xomashyo eksportidan tayyor mahsulotlar eksportiga o‘tish strategiyasi ishga tushirildi. Avtomobil sanoati, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va elektrotexnika ishlab chiqarish rivojlandi.

d) Transport va logistika infratuzilmasining yaxshilanishi. O‘zbekiston Xitoy, Yevropa va MDH davlatlari bilan yangi transport yo‘laklarini yaratdi. Trans-afg‘on temir yo‘li loyihasi va Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo‘li kabi loyihalar orqali O‘zbekistonning tranzit salohiyati oshdi.

3. Rivojlangan sohalar

a) Xomashyo va tabiiy resurslar. Mis, oltin, uran, tabiiy gaz va neft eksporti 2020–2023-yillarda o‘tdi. Xitoy va Yevropa davlatlari bilan energetika xomashyo yetkazib berish bo‘yicha uzoq muddatli shartnomalar imzolandi.

b) To‘qimachilik sanoati. Paxta-to‘qimachilik klaster tizimi joriy etilib, mahsulotni tayyor holatda eksport qilish imkoniyati yaratildi. To‘qimachilik mahsulotlari eksporti 2023-yilda 30% ga oshdi.

c) Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati. Gilos, uzum, xurmo, pomidor va bodring kabi ekologik toza mahsulotlar YeI va MDH bozorlariga eksport qilindi. 2022-yildan boshlab qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish va suv tejovchi texnologiyalar tatbiq etildi, bu esa mahsulot yetishtirish hajmini oshirdi.

4) *Farmatsevtika sanoati.*

O‘zbekiston YeI farmatsevtika bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlash uchun dorivor moddalar eksportini oshirdi. MDH va Yevropa davlatlari bilan dori vositalari bo‘yicha eksport shartnomalari imzolandi.

5) *Avtomobil va elektrotexnika sanoati.*

"UzAuto Motors" va Xitoyning BYD kompaniyasi hamkorligida elektromobillar ishlab chiqarish boshlandi. MDH mamlakatlariga avtomobil va ehtiyot qismlar eksporti oshdi.

O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan savdo aloqalari.

1. Energetika sektori.

Tabiiy gaz eksporti: O‘zbekiston MDH davlatlari, ayniqsa, Rossiya va Qozog‘istonga tabiiy gaz eksportini davom ettirdi.

Elektr energiyasi: Qirg‘iziston va Tojikistonga elektr energiyasi yetkazib berish oshdi.

Neft mahsulotlari: Neft-kimyo mahsulotlari eksportida o‘shish kuzatildi.

2. To‘qimachilik sanoati.

Eksport: Tayyor kiyim-kechak, ip-kalava va boshqa to‘qimachilik mahsulotlari MDH davlatlariga, xususan, Rossiya va Qozog‘istonga eksport hajmi oshdi.

Raqobatbardoshlik: Mahsulotlarning narxi va sifati raqobatbardosh bo‘lib, MDH bozorida talabga ega bo‘ldi.

3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari.

Meva-sabzavot eksporti: O‘zbekiston o‘zining an‘anaviy mahsulotlari (gilos, uzum, sabzi, piyoz, va boshqalar)ni Rossiya, Qozog‘iston va Qirg‘izistonga eksport qilishni oshirdi.

Qayta ishlangan mahsulotlar: Sharbatlar, konservalangan mahsulotlar va qandolat mahsulotlari ulushi ko‘paydi.

4. Metallurgiya va kon sanoati.

Mis va alyuminiy eksporti: O‘zbekiston MDH davlatlariga mis mahsulotlarini yetkazib berdi.

Oltin va boshqa qimmatbaho metallar: Oltin eksporti MDH davlatlari orqali uchinchi bozorlar uchun yo‘naltirildi.

5. Mashinasozlik va texnika

Avtomobillar: "UzAuto Motors" mahsulotlari Rossiya va Qozog‘iston ozorlarida yetakchi mavqeini saqlab qoldi.

Qishloq xo‘jaligi texnikasi: Traktor, kombayn va boshqa texnikalar eksporti ortdi.

Elektr uskunalari: Kabel va boshqa elektr jihozlari savdosi oshdi.

6. Farmatsevtika va tibbiyot mahsulotlari

Farmatsevtika mahsulotlari: MDH davlatlariga dori-darmonlar, ayniqsa generik preparatlar eksport qilindi.

Tibbiy uskunalar: Qozog‘iston va Rossiya bozorlari uchun sog‘liqni saqlash uskunalari yetkazib berildi.

7. Xizmatlar eksporti.

Transport va logistika: O‘zbekiston tranzit davlat sifatida yuk tashish xizmatlarini ko‘paytirdi.

Turizm: Rossiya va Qozog‘iston fuqarolarining O‘zbekistonga sayohatlari orqali xizmatlar eksporti oshdi.

O‘zbekistonning MDH davlatlariga yillar davomida savdo hajmi statistikasi.

Yil	Tashqi savdo aylanmasi			Rossiya (%)	Qozog‘iston (%)	Qirg‘iziston (%)	Turkmaniston (%)	Tojikiston (%)
	Eksport	Import						
2020	11,83 mlrd\$	4,09mlrd\$	7,73mlrd\$	47,70%	25,50%	7,60%	4,50%	4,20%
2021	14,5mlrd\$	5,5mlrd\$	9mlrd\$	47,40%	24,60%	7,80%	10,20%	10%
2022	17,2mlrd\$	6,5mlrd\$	10,7mlrd\$	48%	25%	8%	11%	8%
2023	18,5mlrd\$	7mlrd\$	11,5mlrd\$	47,70%	21,50%	15%	12,80%	12%
2024	21mlrd\$	8mlrd\$	13mlrd\$	50%	22%	16%	14%	8%

O‘zbekistonning YEI bilan savdo va iqtisodiy hamkorlikgi. Rivojlangan sohalarni ko‘rib chiqamiz.

Raqamlarga qaraydigan bo‘lsak, 2022-yilda O‘zbekiston bilan YEI o‘rtasidagi umumiy savdo hajmi qariyb 4,5 milliard dollarni tashkil qilib, 16 foizga o‘sgan, bunday o‘sishga O‘zbekistonning maxsus GSP+ imtiyozlar tizimiga kiritilishi katta turtki bo‘ldi. O‘zbekistonning mazkur tizimga kiritilishi milliy eksportchi korxonalarga Yevropa

87-son 1-to‘plam Yanvar-2026 Sahifa: 392

bozorlariga 6200 turdagi mahsulotlarni hech qanday bojxona to'lovlarisiz olib kirish imkonini beradi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda mamlakatimiz Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun faol ish olib bormoqda. Yevropa Ittifoqi bu intilishlarimizni qo'llab-quvvatlagan holda, ayni yo'nalishda texnik ko'mak uchun 5 million yevro miqdorida mablag' ajratdi. 2023-yil yanvar-dekabr oylari statistik ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimiz Yevropa ittifoqi mamlakatlari bilan – 5,8mlrd.\$ga teng tashqi savdo hamkorligini amalga oshirgan.

O'zbekiston 2020–2024-yillarda Yevropa Ittifoqi (YeI) bilan savdo va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirib, bir qancha sohalarda muhim o'rin egalladi. Quyida har bir asosiy soha bo'yicha batafsil tahlil qilamiz.

1. Xomashyo va tabiiy resurslarda O'zbekistonning o'ri:

O'zbekiston YeI bilan muhim xomashyo yetkazib berish bo'yicha strategik hamkorlikni rivojlantirdi. Bu YeI mamlakatlarining yashil texnologiyalar, avtomobil sanoati va elektronika ishlab chiqarishda ishlatiladigan metallar va minerallar bilan ta'minlanishiga hissa qo'shdi. 2023-yilda O'zbekiston va YeI rasmiy ravishda "Muhim xomashyo sohasida strategik hamkorlik" kelishuvini imzoladi, bu esa O'zbekistonga YeI bozorida barqaror hamkor sifatida mavqeini mustahkamlashga yordam berdi.

Asosiy mahsulotlar: Mis, oltin, uran, nodir metallar, litiy va boshqa mineral resurslar

Natijada: YeI sanoat sektori uchun muhim ta'minotchi sifatida O'zbekistonning o'ri mustahkamlandi. YeI kompaniyalari O'zbekistondagi qazib olish loyihalariga sarmoya kiritishni boshladi.

2. To'qimachilik va yengil sanoatda O'zbekistonning o'ri:

2021-yilda YeI O'zbekistonga GSP+ (Generalized System of Preferences Plus) savdo imtiyozlari tizimini taqdim etdi, bu esa O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarini boj to'lovlarisiz YeI bozoriga eksport qilish imkonini berdi. 2020-yildan boshlab paxta

sanoatida majburiy mehnatga barham berilgach, YeI mamlakatlari O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini muhim hamkor sifatida qabul qila boshladi.

Asosiy mahsulotlar: Tayyor kiyim-kechak, ip-kalava, paxta matolari.

Natijada: 2023-yilda O‘zbekistonning YeIga to‘qimachilik eksporti 30% ga oshdi. YeIning yirik moda va kiyim-kechak kompaniyalari O‘zbekiston bilan hamkorlikni kengaytirdi.

3. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatida O‘zbekistonning o‘rni:

O‘zbekiston YeIga organik va ekologik toza qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini kengaytirdi. YeIning qishloq xo‘jaligi xavfsizligi talablariga mos mahsulotlar yetishtirishga alohida e‘tibor berildi.

Asosiy mahsulotlar: Meva-sabzavotlar (gilos, uzum, xurmo, bodring, pomidor), Quritilgan mevalar (mayiz, o‘rik, yong‘oq), Sharbatlar va konservalangan mahsulotlar.

Natijada: O‘zbekiston YeIning yangi meva-sabzavot bozorida o‘z o‘rnini mustahkamladi. 2024-yilda O‘zbekistonning YeIga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti 25% ga oshdi.

4. Farmatsevtika va kimyo sanoatida O‘zbekistonning o‘rni:

O‘zbekiston YeI farmatsevtika bozori uchun dori vositalari va farmatsevtika xomashyosi eksportini kengaytirdi. YeI standartlariga mos farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlandi.

Asosiy mahsulotlar: Generik dorilar, Tibbiyot uchun xomashyo, Antiseptik va dezinfeksiya vositalari.

Natijada: YeI farmatsevtika kompaniyalari O‘zbekistondagi ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirdi. O‘zbekistonning dori-darmon eksporti hajmi 20% ga o‘tdi.

5. Turizm va xizmatlar eksportida O‘zbekistonning o‘rni:

2022-yildan YeI mamlakatlaridan O‘zbekistonga kelayotgan turistlar soni sezilarli darajada oshdi. O‘zbekiston YeI mamlakatlari bilan madaniy va ekologik turizm yo‘nalishlarini rivojlantirdi.

Asosiy xizmatlar: Turizm va mehmonxona biznesi, Ta’lim va ilmiy almashinuvlar, IT xizmatlari va raqamli texnologiyalar.

Natijada: 2023-yilda YeI davlatlaridan O‘zbekistonga kelgan turistlar soni 40% ga oshdi. YeI kompaniyalari O‘zbekistonning turizm infratuzilmasiga sarmoya kiritishni boshladi.

Bu yillar davomida O‘zbekiston YeI bilan iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirdi va strategik sohalarda o‘z o‘rnini mustahkamlashga erishdi.

Xulosa

2020–2024-yillarda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi sezilarli o‘sish ko‘rsatkichlariga erishdi. Bu davrda mamlakatning tashqi savdosi 16% dan 25% gacha o‘ydi, bu esa O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va yangi iqtisodiy islohotlarning samarasi bo‘ldi. O‘zbekistonning tashqi savdo siyosatidagi o‘zgarishlar, jumladan, bojxona liberallashtirilishi, milliy valyutaning erkin konvertatsiyasi, GSP+ imtiyozlari va yangi savdo hamkorlari bilan kelishuvlar mamlakatning global iqtisodiyotga integratsiyasini kuchaytirdi.

O‘zbekistonning eksport tarkibida eng katta o‘sish xomashyo mahsulotlari va qayta ishlangan mahsulotlar o‘rtasidagi o‘zgarishlarda kuzatildi. Xomashyo mahsulotlarining eksporti hali ham katta o‘rinni egallasa-da, paxta-to‘qimachilik sanoati, avtomobil sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va farmatsevtika kabi sohalar yuqori o‘sish sur‘atlariga ega bo‘ldi. 2023-yilda paxta-to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 30% ga, avtomobil sanoati 25% ga o‘ydi. Shuningdek, farmatsevtika sanoati va elektrotexnika sanoatining rivojlanishi O‘zbekistonning eksport salohiyatini yanada mustahkamladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkatov, D. (2022). Raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Tashkent: O'zbekiston Davlat Noshirligi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Raqamli iqtisodiyot rivojlanishining 2020-2024 yillarga mo'ljallangan strategiyasi. Tashkent: Prezidentning qarori.
3. Khalilov, A. (2021). Elektron hukumat va uning iqtisodiyotdagi o'rni. Tashkent: Informatika va elektronika universiteti.
4. Davlat Statistika Qo'mitasi. (2023). O'zbekistonning raqamli iqtisodiyot sohasidagi yutuqlari va global reytinglar. O'zbekiston Statistika hisobotlari.
5. Raqamli iqtisodiyotning global trendlari. (2023). World Economic Forum.
6. UNCTAD (2023). Digital Economy and International Trade. United Nations Conference on Trade and Development.
7. Kampaniya, A. (2020). Blockchain texnologiyalarining iqtisodiy sektorlarga ta'siri. Tashkent: IT va Iqtisodiyot.
8. Saidov, S. (2024). O'zbekistonda raqamli infratuzilma rivojlanishi. Tashkent: Innovatsiya va raqamli texnologiyalar.
9. O'zbekiston Respublikasining Elektron hukumat tizimi. (2022). Tashkent: Raqamli Davlat xizmati.
10. World Bank. (2023). Digital Transformation in Emerging Markets.
11. www.stat.uz